**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Himoyaga ruhsat

kafedra mudiri

________

«___»_________2016 y.

# BAKALAVR BITIRUV ISHI

**Mavzu:** Web dasturlashni o’rgatuvchi interaktiv web-ilova yaratish (webmaktab.com) Online Web maktab.

Bitiruvchi: ________ Komilov A. B.
(imzo) (f.i.sh.)

Rahbar: ________
(imzo) (f.i.sh.)

Taqrizchi: ________
(imzo) (f.i.sh.)

HFX maslahatchisi: ________
(imzo) (f.i.sh.)

**TOSHKENT – 2016**

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“Kompyuter injiniringi” fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrasi

Yo’nalish 5330200 -Informatika va Axborot texnologiyalari

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri  Karimova V.A. _______

«_____»  ______________  2016 y.

Bitiruv ishini bajarishga

T O P S H I R I Q

**_______Komilov Anvarjon Baxromjon o’g’li________**

Web dasturlashni o’rgatuvchi interaktiv web-ilova yaratish (webmaktab.com) Online Web maktab.

1. Universitet qarori bilan tasdiqlangan: 17. 11. 2015y. 11-95 sonli qarori

2. Ishni to’liq bajarish uchun berilgan vaqt: 30 - may 2016y

3. Ishning boshlang’ich ma’lumotlari: Bitiruv oldi amaliyoti materiallari, kirish hujjatlari, mavzuga oid adabiyotlar.

4.Hisobot tushuntirish matni mundarijasi (ishni bajarishdagi masalalar ro’yxati): a) Web dasturlashni o’rgatuvchi interakyiv web-ilovalar, b) Tizim yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar tahlili, c) Tizimini yaratish va undan foydalanish, d) Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya.

6.Grafik materiallar ro’yhati: rasmlar, sxemalar, jadvallar

7. Topshiriq berilgan kun: 18.01.2016y

Rahbar ______________________ (imzo)    Topshiriq oldim _____________ (imzo)

8.BMIning har bir bo’limida bajariladigan ishlarga maslahatlar

| Bo’lim | Maslahatlar F.I.SH. | Imzo, sana | |
|---|---|---|---|
| | | Topshiriq berildi | Topshiriq olindi |
| Kirish | | 18.01.2016 y. | 18.01.2016 y. |
| 1 – bo’lim | | 02.02.2016 y. | 02.02.2016 y. |
| 2 – bo’lim | | 11.03.2016 y. | 11.03.2016 y. |
| 3 – bo’lim | | 07.04.2016 y. | 07.04.2016 y. |
| 4 – bo’lim | | 18.05.2016 y. | 18.05.2016 y. |
| xulosa | | 23.02.2016 y. | 23.02.2016 y. |

9.Ishni bajarish grafigi.

| № | BI bo’limlarining nomi | Bajarish muddati | Bajarilganligi haqida rahbar imzosi |
|---|---|---|---|
| 1 | Tizim yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar tahlili | 18.01.16-05.03.16 | |
| 2 | Web dasturlashni o’rgatuvchi interakyiv web-ilovalar | 11.03.16-02.04.16 | |
| 3 | Tizimini yaratish va undan foydalanish. | 07.04.16-16.05.16 | |
| 4 | Hayot faoliyati xavfsizligi | 18.05.16-21.05.16 | |
| 5 | Xulosa | 23.06.15-31.05.16 | |

Bitiruvchi: ________________ «______» _________________ 2016y.
(imzo)

Rahbar: ________________ «______» _________________ 2016y.
(imzo)

Ushbu bitiruv ishi web dasturlashni o’rgatuvchi elektron o’quv darslik yaratilishiga bag’ishlangan. Ushbu ishning e’tiborli jihati shundaki, unda foydalanuvchilarning mana shu o’quv dasrsdan olgan bilimlarini tekshirish maqsadida tashkil etilgan mashq qilib ko’rish oynasi tashkil qilingan. Yaratilgan elektron o’quv darslik asosan web dasturlash sohasiga qiziquvchi yosh mutaxassislarga mo’ljallangan.

Bundan tashqari mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo’yicha umumiy masalalar ko’rib chiqilgan.

Данная выпускная квалификационная работа посвящена на разработке Web приложения для обучения PHP, которая строена на основе PHP технологии. Особое внимание обращено к странице TEST, которая дает возможность проверять полученные знания. Данная работа полезна всем, кто интересуется в PHP.

Также рассматриваются вопросы охраны труда и техники безопасности.

This bachelor final graduation work is devoted to the development of Web application for educational purpose which is built on the base of PHP. The main attention is made to the TEST page of the project for giving the chance to students to check their knowledge. Due to this, this application is suitable for everybody who wants to enter to the world of PHP.

Also the problems of labor safety and safety precautions are considered.

# Mundarija


**KIRISH……………………………………………………………….6**

**1. WEB TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING ZAMONAVIY WEB SAYT YARATISHDA TUTGAN O’RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI……………………………………………………..9**

1.1 Elektron o’quv darslik yaratishdagi zamonaviy web texnologiyalar tahlili……………………………………………………………………...9

1.2 Masofaviy ta‘lim va interaktiv o’qitish usullar………………………….15

1.3 Dinamik web sayt yaratishni o’rgatuvchi web vositalar tahlili…………19

1 – bo’limga xulosa……………………………….……………………24

**2. ONLAYN WEB MAKTAB TIZIMI YARATISHDA FOYDALANILADIGAN DASTURIY TAMINOTLAR……………25**

2.1 HTML, CSS va JavaScript dasturlash tillari qisqacha tafsifi…………...25

2.2 PHP web dasturlash tili, uning ma’lumotlar bazasi va web serverlar bilan bog’liqligi………………………………………………………………….31

2 – bo’limga xulosa…………………………………….………….37

**3. ONLAYN WEB MAKTAB TIZIMI VA O’QUV DARSLIK MA’LUMOTLAR BAZASINI ISHLAB CHIQISH………………....38**

3.1 Onlayn web maktab tizimining texnik ta’minoti……………………..38

3.2 Onlayn web maktab tizimi ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish……….39

3.3 Onlayn web maktab tizimini yaratish va undan foydalanish…………...40

3.4 Foydalanuvchi uchun qo’llanma………………………………………..41

3 – bo’limga xulosa……………………………………………………..44

**4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIYA………...45**

4.1 Jahon ekologik muammolari…………………………………………...46

4.2 Favqulodda hodisalar va ulardan himoyalanish………………………...52

**Xulosa……………………………………………………………..60**

**Foydalanilgan adabiyotlar……………………………………….....61**

**Ilova…………………………………………………………………62**

# KIRISH

O’zbekiston Respuplikasi Prezidenti I.A.Karimovning Mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, “Elektron hukumat” tizimini yaratish va ishlashini ta’minlash, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan ”Elektron hukumat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunining mazmun va mohiyatini ijrochilarga yetkazish, shuningdek huquqni qo‘llash samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Ushbu nutqda muxtaram prezidentimiz O’zbekistonda bir yil davomida har bir sohada bo’lib o’tgan o’zgarishlarni va kelajakda kutilayotgan va bajarilishi kerak bo’lgan vazifalarni aniq qilib aytib o’tdilar. Shu jumladan ta’lim sohasiga ham to’xtalib o’tdilar.

Ta’lim sohasida o‘quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O‘tgan yili hammasi bo‘lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so‘m sarflandi. Ushbu mablag‘larning 120 milliard so‘mdan ortig‘i ta’lim muassasalarini o‘quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, komputer va multimedia vositalari bilan ta’minlash uchun ajratildi.

2011-2016-yillarda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta’lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha qiymati 230 milliard so‘mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O‘zbekiston Milliy universitetida yangi o‘quv binolari barpo etildi

Qonunchilik palatasi tomonidan 2015 yil 18 noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2015 yil 3 dekabrda Ma’qullangan “Elekrton hukumat” to’g’risidagi qonunning maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va O’zbekiston respublikasining elektron hukumat tizimini rivojlantirishdan iborat.

2002 yildagi “Axborot kommunikasiya texnologiyalari qo’llash va kompyuterlashtirishni rivojlantirish” to’g’risidagi O’zbekiston respublikasi qarorida ko’rsatilib o’tilgan axborot kommunikasiyalarni har bir sohaga qo’llash bitiruv ishni mavzusini shakllantirishga turtki bo’ldi.

**Dolzarblik**. Hozirgi paytda O’zbekistonda web dasturlash sohasiga bo’lgan talab o’sib bormoqda. Har bir korxona, tashkilot, o’quv muassasalari, taniqli shaxslar o’z shaxsiy web saytlariga ega bo’lmoqdalar. Web dasturchilar bunday saytlarni yaratishda web dasturlash tillariga murojaat qilmoqdalar. Bunday holda ayniqsa o’zbek tilidagi web dasturlash tillarini o’rgatuvchi o’quv qo’llanmalarga ehtiyoj sezilyapti. Ushbu bitiruv ishi ham xuddi shu kabi dolzarb masalalarni yechishga qaratilgan bo’lib, unda HTML, CSS, JavaScript, MySQL va PHP web dasturlash tilini o’rgatuvchi elektron o’quv darslik yaratish g’oyasi ilgari surilgan.

**Ishdan maqsad:** “Web dasturlashni o’rgatuvchi interaktiv web-ilova yaratish (webmaktab.com) Onlayn Web maktab “ tizimini yaratish. Ushbu elektron o’quv darslikni yaratishdan maqsad o’rta - maxsus va oliy ta’lim o’quv muassasalari talabalari hamda shu sohaga qiziquvchilarga HTML, CSS, JavaScript va PHP web dasturlash tili haqida boshlang’ich bilimlar olishga yordamlashish. Bundan tashqari MySQL ma’lumotlar bazasi haqida tushunchalar hosil qilish va uni PHP dasturlash tili bilan bog’lashni o’rgatishdan iborat.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- Internet, uning hozirgi zamon AT muhitidagi o’rni va uning asosiy tushunchalarini o’rganish;

- web dasturlash tillarining asosi bo’lgan HTML gipermatnli tili haqida tushunchaga ega bo’lish;

- PHP tilining imkoniyatlarini o’rganib chiqish;
- Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash va uni boshqarish;
- Elektron o’quv darslikdan foydalanish yo’riqnomasini yaratish.

Bitiruv ishi kirish, to’rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

Birinchi bobda Web texnologiyalar va ularning zamonaviy web sayt yaratishda tutgan o’rni va rivojlanish istiqbollari, internet va web dasturlash tillarining hozirgi zamon AT muhitidagi tutgan o’rni haqida fikr yuritilgan.

Ikkinchi bobda HTML, CSS, JavaScript, PHP dasturlash tili va MySQL ma’lumotlar bazasi haqida umumiy ma’lumotlar berilgan bo’lib , ularning o’zaro bog’liklari to’g’risida gapirib o’tilgan. Dastur ishlashi uchun kerak bo’ladigan apache serverning PHP dasturlash tili bilan bog’liqligi to’g’risida ham to’xtalib o’tilgan.

Uchinchi bobda dasturiy tizimga qo’yiladigan talablar, dastur interfeysi va undan foydalanish yo’riqnomasi ishlab chiqilgan.

To’rtinchi bob texnika xavfsizligiga bag’ishlangan bo’lib, unda jahondagi mavjud ekologik muammolar va favqulotda hodisalar va ulardan himoyalanish to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Xulosa qismida bitiruv ish davomida olingan asosiy masalalarning yechimi va bajarilgan ish haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

# 1. WEB TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING ZAMONAVIY WEB SAYT YARATISHDA TUTGAN O’RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## 1.1 Elektron o’qiv darslik yaratishdagi zamonaviy web texnologiyalar tahlili

Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishini web texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Web texnologiyalari deganda - web ilovalar hosil qilish, web saytlar tashkil qilish, tarmoq va texnologiyalar jamlanmasi tushuniladi. Web texnologiyalarida quyidagi 3 ta asosiy tushuncha mavjud:

- Web sahifa
- Web sayt
- Web server

**Web sahifa** o’zining unikal adresiga ega bo’lgan va maxsus brauzer dasturlar orqali ochiladigan va ko’riladigan elektron hujjatdir.

**Web sayt** bir nechta web sahifalarning mantiqiy va funksional jihatdan birlashtirilgan sahifalar to’plami.

**Web server** tarmoqqa ulangan kompyuter hisoblanib umumiy resurs va dasturlarni boshqaradi. Web sahifa va web saytlar bilan ishlash uchun eng keng tarqalgan texnologiya WWW texnologiyasidir. Umumiy holda web texnologiyalarni quyidagi sxema ko’rinishida tasvirlash mumkin.

Internetda barcha hujjatlar HTML (Hyper Text Markup Language . Gipermatnni belgilash tili) formatida tuziladi. HTML yordamida yozilgan hujjatlarni web-hujjat yoki web-sahifa deb atashadi. Birorta foydalanuvchi yoki tashkilotga qarashli bo‘lgan, bir-biriga bog‘langan web-sahifalar to‘plami SAYT deb aytiladi.




1.1 – rasm. Web texnologiyalar klassifikatsiyasi.

Aslida web-sahifa oddiy matndan iborat va uning fayl kengaytmasi *.htm. yoki *.html. bo‘ladi. Matnning o‘lchamini, rangini, shaklini o‘zgartirish uchun HTML teg (belgi)lari qo’llaniladi. HTML teglari yordamida sahifaga rasm, video o’rnatish, orqa fon (ko’rinish), musiqaviy ijro va yana ko’p narsalar qo’shish mumkin. Natijada, oddiy matn chiroyli va qulay ravishda taqdim etiladi.

**Gipermatn**. WWW xizmatining eng inqilobiy qismi gipermatn orqali umuman klaviaturaga tegmasdan, faqat sichqonchaning chap tugmasini chertish yordamida Internetda sayohat qilish mumkin. Gipermatnning asosiy elementi giperko’rsatkich , tarmoqdagi boshqa hujjatga ko’rsatkich bo’lib, ular ikki xil: matn va grafik. Ko’rsatkichni aniqlash uchun web-sahifa ko’rilyatganda sichqoncha belgisi qo’l ko’rinishiga o’zgarsa, demak sichqonchaning tagidagi element giperko’rsatkichdir. Matn ko’rsatkichlar, odatda, oddiy matnlardan ajralib turishi uchun, tagida chiziqchali va boshqa rangda bo’yaladi.

**Grafik ko’rsatkich**. Giperko’rsatkichga chertsangiz, huddi sehrli ravishda boshqa sahifaga o’tasiz. Hech qanday sahifaning manzilini, hech qayerga kiritish shart emas, chunki giperko’rsatkich barcha kerakli ma’lumotga ega.

**Brauzer web-sahifalarni ko’rish dasturi**. Brauzer web-sahifada HTML teglarini topib, ular talabi bo’yicha ma’lumotni ekranga chiqaradi. Teglar, o’zlari, ekranda aks ettirilmaydi.

1993 yilda birinchi web-brauzer Mosaic paydo bo’ldi. Bugungi kunda yuz xil brauzerlar mavjud. Eng mashhurlari: Internet Explorer (Windows tarkibidagi dastur), Opera, FireFox.

Gipermatn jo’natish protokoli (HTTP) web-brauzer va web-server muloqotining asosini tashkil etadi. Web-brauzer HTTP maxsus komandasi orqali server bilan bog’lanish uchun so’rov jo’natadi. Agar so’rov qoniqtirilsa, brauzer server bilan bog’lanadi. Qabul qiluvchi tomon nima qilishni o’zi xal qiladi yoki ekranda faylni ko’rsatadi, yoki uni diskda saqlab qo’yadi va h.k. HTTP Internetda foydalaniladigan yagona protokol emas. Fayllar uzatish protokoli (Post Office Protocole – POP, Simple Mayl Transport Protocole - SMTP), shifrlangan HTTP protokoli (SHTTP) kabi protokollar mavjud.

Butun jahon o’rgimchak to’rining asosiy va HTML ning tarkibiy qismini gipermatnlar va gipermurojatlar tashkil etadi. Maxsus komandalar yordamida matnning ma’lum qismi shunday ajratiladiki, natijada o’sha matn ustiga sichqoncha tugmasi bosilsa boshqa matn yoki sahifa ochiladi. Bundan tashqari multimedia vositalarining ishlab ketishi yoki bo’lmasa, ma’lumotni diskda saqlash taklifi ham berilishi mumkin. Gipermatn yoki gipermurojat biror bir tasvirga ham qo’yilishi mumkinki uning ustiga bosilganda ham yuqorida aytilgan holatlar ro’y berishi mumkin. Har bir web-sahifa o’zida bir nechta gipermatn yoki gipermurojatlarni mujassam etishi mumkin. FTP protokoli kompyuterlar o’rtasida fayllar almashishda qo’llaniladi. FTP murojaatlarini hosil qilish uchun kerakli server nomini bilish kifoya:

<a href=”ftp://ftp.microsoft.com/”>Microsoft kompaniyasining FTP sayti</a>

<a href=”ftp://ftp.jspi.uz/downloads/program.zip”> Zip langan programma</a>

Ikkinchi misoldan ko’rinib turibdiki, kerakli programmani birato’la skachat qilib olish mumkin. Bunda brauzer olinayotgan dasturni qattiq diskka haqiqatdan ham saqlash kerak yoki kerakmasligini foydalanuvchidan so’raydi.

**CMS haqida.** Har qanday sayt **HTML**(Hyper Text Markup Language), **JavaScript, PHP** kabi bir talay tillarga oid kodlardan tashkil topgan sahifalar yig'indisidan iborat bo'ladi. HTML – bu sayt sahifalarini tashkil etishda ishlatiladigan eng asosiy va eng kerakli til hisoblanadi.

Internet tarmog'i endigina rivojlana boshlagan va ilk saytlar yaratila boshlanga vaqtlarda barcha web saytlar to'liq HTML kodlar asosida yaratilgan. Bunday saytlar sahifalarida ko'rish orqali ma'lumotga ega bo'lishdan boshqa hech qanday amaliyot bajarishning imkoni bo'lmagan. Shuning uchun to'liq HTML yordamida tashkil etilgan saytlar foydalanuvchilarga faqat ma'lumot berish, ya'ni ma'lumotlarni ko'rsatib berish imkoniyati bilan cheklangan.

Bugungi kunda saytlar orqali faqat ma'lumot olish bilan cheklanib qolmaysiz. Hozirgi zamonaviy saytlarda ma'lumot olish bilan bir qatorda berilgan ma'lumotni tahrirlashingiz (masalan, Wikipedia), yangi ma'lumot qo'shishingiz (masalan, saytlarda fikr bildirish – Comment), bir turdagi ma'lumotni uzatib, onlayn tizimda boshqa bir turdagi ma'lumot shaklida qabul qilib olish (masalan, video fayllarni onlayn tizimda mp3 formatiga o'tkazish), soni cheklanmagan foydalanuvchilarning bir vaqtning o'zida onlayn muloqotga kirishish (masalan, chat) va boshqa interaktiv amaliyotlarni bajarishingiz mumkin. Bu o'z navbatida, faqat HTML ishlatilgan zamonga nisbatan hozirgi paytda internetda saytlarning yaratilishi sezilarli rivojlanganligini bildiradi.

Hozirgi davrda, agar siz sayt yaratmoqchi bo'lsangiz, HTML yoki boshqa biror murakkab web dasturlash tilini bilishingiz majburiy emas. Hatto birorta ham kodni yoza olmasangiz ham zamonaviyligi, dizayni, murakkab amaliyotlarni bajara olishi jihatlaridan zamon talablariga to'la javob bera oladigan sayt yarata olish imkoniyatiga egasiz. Bunda Sizga CMS yordam beradi!

**CMS (Content Management System – Kontentlarni Boshqarish Tizimi)** – bu maxsus web dastur bo'lib, bir necha oddiy bosqichlardagi amaliyotlarni bajargandan so'ng to'la kuch bilan ishlay oladigan sayt yaratish imkoniyatini beradi. Bunday turdagi web dastur, huddi kompyuterlar uchun mo'ljallangan dasturlar singari, bir necha bosqichlarda foydalanuvchidan sayt

haqida boshlang’ich ma’lumotlarni yig’ib oladi va bosqichma-bosqich saytingizni avtomatik tarzda tashkil etib beradi. Dasturni o’rnatish jarayonining nihoyasida siz kiritgan ma’lumotlarda tayangan, o’zingiz xohlagandek sayt avtomatik tarzda yaratiladi.

Quyida eng keng tarqalgan va bugungi kunda ko’pchilik saytlarning asosi hisoblangan CMS dasturlarini keltirib o’tilgan. Bu yerda faqat eng ko’p foydalaniladigan, asosiy dasturlargina keltirilgan. Sayt yaratishingiz mumkin bulardan boshqa yana ko’plab dasturlar mavjud.

**WordPress.** Ushbu CMS asosan blog (biror shaxs, joy yoki alohida mavzuga bag’ishlangan, tez-tez yangilab turiladigan, qisqa maqolalar va ma’lumotlar kiritib boriladigan o’rta hajmdagi sayt) uchun mo’ljallangan. Ammo bugungi kunga kelib bu CMS shu qadar mukammallashib ketdiki, hozirda uni hatto portal saytlar uchun ham ishlatishmoqda.

WordPress – foydalanish uchun juda oson, qulay va eng asosiysi 100% bepul bo’lgan dastur. Uni WordPressning rasmiy sayti www.wordpress.org orqali yuklab olishingiz va foydalanishingiz mumkin. Asosiy CMS dasturdan tashqari WordPress uchun millionlab shablonlar (sayt ko’rinishlari) va plaginlar (dastur ichida ishlovchi kichik qo’shimchalar) yaratilgan.

Agar Siz o’zingiz uchun shaxsiy sahifa ochmoqchi bo’lsangiz, sevimli qo’shiqchingizga bag’ishlab sayt yaratmoqchi bo’lsangiz yoki o’zingiz uchun qiziq bo’lgan biror mavzuga oid maqolalaringizni butun dunyo bilan bo’lishmoqchi bo’lsangiz WordPressni tanlang! O’zbekistonliklar WordPressni ham egallashga ulgurishdi! Endi WordPress CMSni o’zbek tilida ham ishlatishingiz mumkin. Uning O’zbekiston uchun maxsus rasmiy sahifasi ham bor: uz.wordpress.org

WordPress shaxsiy blog yaratish qurilmasi hisoblanadi. Ushbu dastur MySQL hamda PHP yordamida ishlaydi. WordPress 2013-yilning Avgust oyida 10 million web saytlarning 22% egalladi. Hozirda WordPress Web olamidagi eng katta blogging tizimlaridan biri hisoblanib, uning yordamida 60 millionga yaqin web saytlar ochilgan.

WordPressning ilk bor ommaga tadbiq etilishi 2003-yilning 27-mayida boʻlgan. U *b2/cafelog* dasturining rasmiy davomchisi hisoblanadi.

3.2 versiyasidan boshlab:

- PHP 5.2.4 versiyasi
- MySQL 5.0 versiyasi kabilarni qoʻllaydi.

3.2 versiyasigacha:

- PHP 4.3 versiyasi
- MySQL 4.1.2 versiyasi kabilarni qoʻllaydi.
- Veb standartlarga asoslangan
- Doimiy link strukturasi
- Statik sahifalar
- Oʻ rnatish va moslashdagi qulaylik

**Joomla!** Bu CMS asosan katta saytlar va portallar uchun mo’ljallangan. Ommaviyligi bo’yicha WordPressdan keyingi o’rinda tursa ham, ishlatish juda qulay, ishonchli va bepul CMS hisoblanadi. Dasturni rasmiy sayti www.joomla.org orqali yuklab olishingiz mumkin.

Joomla! CMS uchun ham ko’plab shablonlar, “extension” (kengaytma, plagin)lar yaratilgan. Joomla! uchun ham saytni o’zbek tiliga o’tkazish imkoniyati bor. Buning uchun dasturni o’rnatib, o’zbek tiliga o’girish uchun maxsus tayyorlangan kichik dasturni qo’shishingiz kifoya!

Agar Siz katta portal yaratmoqchi bo’lsangiz, saytingiz foydalanuvchilari ro’yxatdan o’tib, saytingizda “foydalanuvchi-server” aloqasi ko’rinishidagi murakkab amaliyotlarini bajara olishini xohlasangiz, juda keng qamrovli katta sayt yaratmoqchi bo’lsangiz Joomla! Siz uchun eng yaxshi tanlov bo’la oladi.

**Simple Machines.** Forum tashkil etish uchun juda qulay CMS. Unda foydalanuvchilar ro’yxatdan o’tishlari, mavzular yaratishlari, mavjud mavzularda o’z firklarini bildirish orqali qatnashishlari va boshqalarning fikrlarini to’ldirishlari mumkin. Bu CMS Bulletin kabi katta imkoniyat va kuchga ega bo’lmasa ham, oddiy darajadan yuqoriroq bo’lgan katta forum saytlarni bemalol boshqara oladi.

Forum uchun o’zbek tilini o’rnatish imkoniyati mavjud, ammo hozircha o’zbek tilidagi rasmiy CMS ishlab chiqilmagan. Tilni faqat dasturga qo’shimcha kiritish orqali o’zgartirish imkoni bor.

Bugungi kunda Simple Machines forum saytlar uchun yengil ishlashi, o’rnatilishi uchun ko’p joy talab qilmasligi va eng asosiysi bepul bo’lganli sababli ham ko’p sonli saytlarning tanloviga aylangan.

Simple Machines CMSni dasturning rasmiy sayti www.simplemachines.org orqali yuklab olishingiz mumkin.

Agar Sayt yaratishni rejalashtirayotgan bo’lsangiz va o’z saytingiz uchun qaysi CMS to’g’ri kelishini bilmayotgan bo’lsangiz, saytingizning hajmi va u orqali foydalanuvchilar qanday ma’lumotlarni olishini rejalashtirayotganingizga qarab o’zingizga ma’qul bo’lgan CMSni tanlang.

CMS tanlash jarayonida faqat Siz tanlamoqchi bo’lgan CMSning shablonlariga, saytning tashqi ko’rinishini belgilaydigan jihatlarigagina emas, balki saytning yengil ishlashi, hostingingizda ko’p joy olmasligi (agar buning zarurati bo’lsa), qidiruv mashinalarida oson ro’yxatdan o’ta olishi, foydalanuvchilar uchun qulayligi, turli brauzerlarda bir hil ko’rinishi kabi muhim jihatlariga ham e’tibor bering.

## 1.2 Masofaviy ta‘lim va interaktiv o’qitish usullar

Zamonamiz jamiyatni axborotlashtirishning yuqori darajasi bilan ham o‘ziga xosdir. Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalari qatorida ta’lim jarayoniga ham keng joriy etilib borilmoqda. Oliy ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi yangi innovatsion vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa yangi imkoniyat hamda jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish — bu ta’lim jarayonlarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim sifatining oshishida namoyon bo‘ladi hamda talabalarda ta’lim olishga intilishlarining kuchayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari tushunchasi mazmun-

mohiyati bilan: «Turli predmet, obyektlar va hodisalar haqida axborot to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash, tarqatish hamda foydalanish uchun yangi zamonaviy usul va mexanizmdir».

Zamonaviy ta’lim yuqori darajada axborotga boyligi bilan ajralib turadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi aynan shu jihatga asoslangan. Ta’limda yangi o‘qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo‘ldi. Elektron darslik o‘zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi. Elektron darslik — bu talabalarda o‘zlashtirishi uchun hamda ko‘nikma va malakalar orttirishida zarur bo‘lgan bilimlar bayon etilgan o‘quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo‘lgan vositadir. Unda o‘quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o‘ziga xosdir. Elektron darslik qog‘ozli darslikka nisbatan quyidagi qator afzalliklarga ega:

- foydalanishda oddiyligi va qulayligi;
- elektron darslik resurslarini yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- ta’lim jarayonini avtomatlashtirish va ta’lim xizmatlarini taqdim etish tezligini oshirish;
- axborotlarning to‘liqligidan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o’zgarishlar, islohotlarta’lim standartlarini o’zgartirishga, yangi fan, o’quv kurslarini kiritishnigina emas, balki dars o’tish metodlarini ham o’zgartirishni, talabalarni darsga qiziqib, faol qatnashishlarini ta’minlaydigan metodlarni qo’llash ehtiyojlarini keltirib chiqardi. Shuning uchun jahon pedagogikasida asosiy e’tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilishga qaratildi. Tajriba talabalarda aynan ana shu xislatlar, ko’nikmalarni hosil qilishda hosilberishning interaktiv metodlarini qo’llash ijobiy natija berishini ko’rsatdi. Bu uslublar dars o’tishni dialog tarzda amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta’minlashga qaratilgan. Har qanday fandan dars o’tishda turli metodlarni, ayniqsa, interaktiv

metodlarni qo’llashzaruriyati yana shunda ifodalanadiki, birinchidan, bunday metodlarni qo’llashdarsni qiziqarli o’tish va talabalarni darsga faol qatnashishlarini, ikkinchidan, ularning diqqatini o’tilayotgan darsni o’zlashtirishga qaratishlarini ta’minlaydi. Dars o’tishda qo’llaniladigan metodlarni shartli ravishda: an’anaviy dars o’tish uuslublarihamda talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlarga ajratish mumkin. An’anaviy dars o’tishda darsning asosiy maqsadi ko’proq tushuntirishga qaratilgan bo’lib, o’qituvchi bilim beruvchi, o’quvchitalaba bilim oluvchi rolini bajaradi. Ularni o’rganilayotgan mavzuni qay darajada o’zlashtirganlarini nazorat qilish jarayonida bildirgan fikrlariga qarab aniqlanadi. Pedagoglar, pedagogolimlar dars jarayonida o’quvchi, talabalar o’rtasida hamda ular bilan o’qituvchi orasida yuqori darajada hamkorlik o’rnatilsa, uni interaktiv hisoblashadi. Odatda bunday hamkorlik u yoki bu muammoni echish yo’llarini fikrlashib topishda, qabul qilingan qarorni qay darajada qo’llasa bo’lishini muhokama qilishda o’rnatiladi. Shunga alohida e’tibor berish kerakki, muhokama jarayoni uni javoblaridan ham muhimroq. Ta’lim interaktivmetodlarining maqsadi bilim berish emas, balki o’quvchi, talabalarda mustaqil ravishda o’qish, izlanish, savollarga javob topish, qaror qabul qilish ko’nikmasini shakllantirishdir. Dars o’tishning talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlari ayrim adabiyotlarda noan’anaviy dars o’tish metodlari deb ham ta’riflanadi. Bu metodlardan avvallari ham foydalanilgan, lekin kamroq e’tibor berilgan. Hozirgi paytda butun dunyoda faol interaktiv metodlarni qo’llashni dars o’tishning samarali metodi sifatida tan olinib, keng qo’llanilmoqda.

Interaktiv metodika o’zaro hamkorlikning nihoyatda ko’p usul va turlarini qamrab oladi. Lekin metodik usul qanday bo’lishidan qat’iy nazar, o’quvchi talabalarning tajribalari asosiy ta’lim manbai hisoblanadi. Hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan metodlarning asosiy xususiyati shundaki, unda o’quvchi, talaba o’zi uchun nimanidir kashf qiladi.

Interaktiv metodlar «o’qishga va uqishga» o’rgatadi. U o’quvchitalabalarning nihoyatda katta intellektual potentsialidan foydalanish imkonini beradi, ularni o’quv jarayonida faol qatnashishlarini ta’minlaydi. O’quv

jarayonida nafaqat hamkorlik, balki musobaqa, bellashuv elementlarini hamqo'llash imkonini beradi. Interaktiv metodlar talabalarni o'z fikrini ifodalashi uchun keng imkoniyat yaratib beribgina qolmay, o'rtoqlarining fikri, asoslari, dalillarini tinglab, o'z fikridan qaytishi yoki fikrini tamomila o'zgartirishi mumkin. Interaktiv metodlar boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashga, uni sabrtoqat bilan eshitishga ham o'rgatadi. Auditoriyada hamkorlik muhitini yaratishning real imkoniyatini yaratadi.

O'qituvchi yaxshi dars berishning tayyor retseptiga emas, balki interaktiv metodlarga asoslangan ta'lim texnologiyasiga ega bo'lishi kerak. U ijodiy hamkorlikda ishlashga va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish uchun tayyor turishga o'rgatadi.

Ta'limning interaktiv metodlari pedagoglarda:

- darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi;
- o'quv materialini puxta o'zlashtirish imkonini beradi;
- o'quvchi, talabaning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi;
- barcha o'quvchi, talabalarni o'quv jarayoniga tortish, faolligini oshirish uchun sharoit yaratadi;
- guruhda ko'ngildagidek ijobiy psixologik iqlim, muhit yaratadi.

Dars o'tish metodlari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar: To'g'ridan to'g'ri bayon qilish uslubi. Bu model (uslub)da yangi tushunchalar, navbatmanavbat, astasekinlik bilan, mantiqiy izchillikda berib boriladi. Bu uslub ko'proq ma'ruza o'qiganda qo'llaniladi. Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash. Bu uslubda juftlik yoki kichik guruh bilan birgalikda qo'yilgan u yoki bu masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, muloqot qilish orqali echish ko'zda tutiladi. Intervyu – bir yoki bir necha kishilardan axborot olish uchun aniq maqsadga qaratilgan so'rov (savoljavob) o'tkaziladi.

Darsni aniq yo'naltirilgan (mo'ljallangan) savollar asosida olib borish. Bu uslubda mavzu bo'yicha aniq yo'naltirilgan savollar bilan mavzu muhokama qilinadi. O'qituvchi savol-javob, suhbatni boshqarib turadi. Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar. Bu uslubda talabalar qatnashadi. Modellashtirishda

abstrakt uslublardan foydalanib, real voqelikka iloji boricha yaqinlashtiriladi. Bu uslub oson tushunadigan talabalarga qo'l keladi. Modellashtiruvchi o'yinda talabalar o'zlari belgilangan rollarni bajaradilar. O'z xattiharakatlari orqali zarur malaka va ko'nikmalarni egallashadi. Referat – baholash nuqtai nazaridan neytral pozitsiyada turgan holda mavzu bo'yicha og'zaki axborot bo'lib, u aniq ob'ektiv, struktura, kitob yoki risolaning mazmunini qisqacha bayon qilish yoki biron mavzu, asar bo'yicha qisqacha doklad tarzida tayyorlanishi mumkin. Doklad yoki qisqacha doklad mavzu yoki muammoni tartibga solingan holda tanishtirish yoki baholash tarzida bayon qilinadi. Masala yoki mashq echish. O'tilganlarni nazariy jihatdan yodga tushirib, berilgan topshiriqni bajarish. Nazariy bilimni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratiladi. Tadqiqot metodi. Bu metodda biron muammo yoki gipoteza qo'yilib, guruh birgalikda tadqiqot o'tkazadi, mantiqiy xulosa chiqariladi, uni ilgari surilgan gipoteza bilan taqqoslaydi. «Aqliy hujum» metodi muayyan muammo echish uchun talabalar o'rtasiga qo'yiladi. Unda har bir guruh yoki alohida talabalar tomonidan fikr va mulohazalar bildiriladi. Ular solishtiriladi va xulosa chiqariladi. Konkurs(tanlov)lar o'tkazish. Ma'lum bir mavzu yoki muammo bo'yicha talabalar olgan bilimlarini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi. Dars o'tishda boshqa qator metodlar ham mavjud bo'lib, ularni o'qituvchi mavzuning mazmuni, guruhning tayyorgarligiga qarab, qo'llashi mumkin. Dars berish jarayonida turli metodlarni qo'llashni hozirgi paytda keng targ'ib qilinayotganiga qaramay hali kutilgan natijaga erishilgani yo'q.

### 1.3 Dinamik Web sayt yaratishni o'rgatuvchi web vositalar tahlili

Hozirgi kunda Web sayt yaratish bo'yicha juda ko'p ma'lumotlar, qo'llanmalar, video darslar xamda Web sayt yartish bo'yicha ma'lumotlar jamlangan web saytlar mavjud. Bularning aksaryati xorijiy tililarda berilgan. Masalan: www.w3shools.com.

Bu sayt foydalanuvchilar uchun juda qulay hisoblanadi. Bu yerda web texnologiya bo’yicha, ya’ni HTML, CSS, JavaScript, jQuery, PHP MySQL va boshqa web dasturlash tillari bo’yicha barcha ma’lumotlar mujassam bo’lib, ulardan bir vaqtning o’zida xam o’qib, xam o’sha yerning o’zida shu mavzu bo’yicha misol ishlash mumkin.




1.2 rasm. W3schools.com saytining bosh oynasi.

Bu web saytdagi barcha ma’lumotlar ingliz tilida berilgan. Bu onlayn school hisoblanib, ro’yxatdan o’tib, onlayn o’qib sertifikat olish mumkin. Bu sayt asosan Microsoft ASP web dasturlash tilida yaratilgan.

http://www.php.net Bu sayt PHP web dasturlash tili bo’yicha o’zida ma’lumotlarni to’liq jamlagan sayt hisoblanadi. Ma’lumotlar ingliz tilida. PHP web dasturlash tilining barcha funksiyalari, elementlari, o’zgaruvchilari, o’zgarmaslari va ulardan qanday foydalanish haqida ma’lumotlar olish va shu ma’lumotlar uchun misolarni xam topish mumkin. Bundan tashqari PHPda MySQL so’rovlar amalga oshirish imkonoyatlarini xam o’rganish mumkin. Bu sayt asosan PHP web dasturlash tilida yaratilgan. Sayt PHP ni mukammal o’rgatuvchi sayt xisoblanib juda ko’p foydalanuvchilarga ega.




1.2 rasm. php.net saytining bosh oynasi.

O’zbekistondagi o’zbek tilida berilgan web dasturlash haqida ma’lumotlarni o’rgatuvchi web saytga misol sifatida quyidagi saytni aytish mumkin: [http://keepgoing.uz](http://keepgoing.uz)




1.2 rasm. keepgoing.uz saytining bosh oynasi.

Bu sayt Toshkent shahridagi Inha universiteti IUT-lab talabalari tomonidan yaratilgan. Bu saytda hozirda HTML 5, CSS  darslari haqida ma’lumot olasiz. Sayt

adminlari vadasiga ko'ra bu sayt kelajalda shunday bo'ladi: " Biz oldimizga maqsadni keng olgan holda, aynan o'zbek yoshlari uchun o'zbek tilida o'quv kurslarini ishlab chiqdik. Bu faqat boshlanishi, hali oldinda sizni, qiziqarli ko'plab testlar, vazifalar kutmoqda. Hozirda faqat nazariy tushuntirishlar orqali bayon qilgan bo'lsak, tez orada video orqali ham o'z darslarimizni davom ettiramiz". HTML, CSS haqida ma'lumotlarni tushunarli va qulay tarda taqdim etgan mavzu yuzasidan misollar mavjud.

Bundan tashqari yana juda ko'p saytlarda web dasturlash boyicha bloglar tashkil qilingan. U yerda foydalanuvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan savol-javoblar o'tkazadilar. Bulardan http://tami.uz web saytida blog yaratilgan va u yerda ma'lum mavzu yuzasidan ma'lumotlar berilgan. Ma'lumot qo'shgan web dasrutchiga foydalanuvchilar o'zini qiziqtirgan savollar yuzasidan xabar yuborish imkoni yaratilgan. Masalan:




1.2 rasm. tami.uz saytining HTML 5 blog oynasi

Bu blogda HTML 5 haqida ma'lumot berilgan. Axborot muallifi: Mingashev SH. Ma'lumot qoshilgan sana xam ko'rsatilgan. Sahifaning pastki tarafida mavzu bo'yicha muloxaza yuborish oynasi mavjud.

Bunday web dasturlashni o'rgatuvchi saytlar haqida ma'lumot to'plar ekanman, barcha tizimlarning afzalliklari, quliklari va albatta xar bir tizimda

bolgani kabi kamchiliklarini o’rganishga muoffaq bo’ldim va bu ma’lumotlar asosida o’z bitiruv malakaviy ishimni yozish keng qo’llandim. Mening xam maqsadim yosh web dasturchilar uchun qulay, tushunarli web dasturlashni o’rgatuvchi, xozirgi tizimlardan qlishmaydigan web sayt qilishni o’z oldimga malakavi ish sifatida qo’ydim.

**Web sayt va web texnologiyalarning o’rni va ahamiyati.** Bugungi kunda Interning ommaviyligi haqida gapirish o’rinsiz. Internet hayotimizning bir bo’lagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni faydalanishga odatlandik. Hozirda ixtiyoriy inson web-texnologiyalarning inson hayotining ta’lim, kommersiya, siyosat, ko’ngil ochar va boshqa bo’laklariga kirib borganligini tasavvur eta oladi va uning guvohi va foydalanuvchisiga aylanmoqda.

Internet turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga sabab bo’lmoqda. Hamma Internet tarmag’idan biror turdagi informatsiya olishga harakat qiladi. Shunday vaqtlar keladiki, hujjatni Internetda chop etish malakasi yozuv mashinkasidan foydalanish kabi har bir hatto o’rta ma’lumotga ega bo’lgan insonning qo’lidan keladi.

Mazkur qo’llanma web-hujjatlarni yaratish, ularni Internetda chop etish, web-hujjatni ko’rkamlashtirish, qiziqarli va o’ziga tortuvchi qilib yaratish, vaqti kelsa ma’lumotlarmi yangilash kabi vazifalarni o’rgatishga mo’ljallangan.

Dastlabki web-sahifalar juda sodda tuzilishga ega bo’lib, ular matnni formatlash va giperko’rsatkichlardan tarkib topgan edi. Web texnologiyalar rivojlanishi natijasida Web sahifalar tarkibida Plug-in dasturlar joylashtirila boshlandi, natijada Web sahifalarga iteraktiv xususiyati berildi. Web texnologiyalarning rivojlanishining oxirgi natijalaridan biri bu skript tillaridir (Script Languages). Ularni ishlatishdan maqsad Web serverining ishini engillashtirish, xar-xil mayda ishlar uchun Web serverini bezovta qilmasdan, bunday masalalarni foydalanuvchi kompyuterining o’zida yaratishdir. Web texnologiyasining oxirgi erishgan yutuqlaridan biri dinamik Web sahifalardir. Dinamik Web sahifalar CGI dasturlar bilan bevosita bog’liq bo’lib, CGI dasturlar serverda joylashgan va server imkoniyatlarini ishlatuvchi dasturlardir. Ular

serverga kelgan so’rovlarni qayta ishlaydi va qayta ishlash natijasida yangi Web sahifa hosil bo’ladi.

Web sahifa Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to’plami bo’lib, ularni soni soat sayin ko’payib bormoqda. Bu fayllarda ma’lumotlarni turli xillarini: matn, grafik, tasvir, video, audio ma’lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda Web Internet resurslari ichida eng ommaviysi hisoblanadi. Chunki, avvaldan tayyorlangan Web sahifa orqali tegishli ma’lumotlarni to’ldirish foydalanuvchining qanchadan-qancha vaqtini tejash imkonini beradi. Shu bois matematika va informatika yo’nalishida tahsil oluvchi talabalarga Web texnologiyalarni alohida kurs sifatida o’qitila boshlandi.

Hozirgi paytda O’zbekistonda web dasturlash sohasiga bo’lgan talab o’sib bormoqda. Har bir korxona, tashkilot, o’quv muassasalari, taniqli shaxslar o’z shaxsiy web saytlariga ega bo’lmoqdalar. Web dasturchilar bunday saytlarni yaratishda web dasturlash tillariga murojaat qilmoqdalar. Bunday holda ayniqsa o’zbek tilidagi web dasturlash tillarini o’rgatuvchi o’quv qo’llanmalarga ehtiyoj sezilyapti.

## 1 - bo’limga xulosa

Xulasa qilib shuni aytish mumkinki, Web dasturlash xozirgi zamon uchun eng kerakli dasturlash tillaridan biri hisoblanadi. Web dasturlashni o’rganish uchun talab juda yuqoriligini aytish mumkin. Web dasturlashni o’rgatuvchi ma’lumotlar, video kurslar va web saytlar faoliyati mavjud. Bundan tashqari turli o’quv muassasalarida o’quv ishlab  chiqarish amaliyotini o’tkazish bo’yicha turli xil tajribalar to’plandi. Elektor o’quv darslik yaratishdagi zamonaviy web texnologiyalar tahlil qilindi. Web sayt yaratish bo’yicha tayyor dasturlar, ya’ni CMS lar jumladan, wordpress, jumla va simple machines cms lari haqida malumotlar to’plandi. Web darsutlashni o’rgatuvchi web saytlar, bloglar ma’lumotlar, video kurslar tahlil qilindi.

# 2. ONLAYN WEB MAKTAB TIZIMI YARATISHDA FOYDALANILADIGAN DASTURIY TAMINOTLAR

## 2.1 HTML, CSS va JavaScript dasturlash tillari qisqacha tavsifi

**Html tili**. Htmlni belgilash tili to'g'risida umumiy ma'lumot. Butun dunyo o'rgimchagi to'ri – World Wide Web (WWW) HTML gipermatn bog'lanish tili yordamida tuzilgan Web-sahifalardan iborat HTML ancha murakkab til (Standart Generalived Marnup Language**)** SGMLning hisoblanadi. Ananaviy tushuncha bo'yicha HTML butunlay dasturlash tili hisoblanmaydi. HTML–hujjatni belgilash tili. HTML–hujjatni tadqiq qilishda matnli hujjatlar teg(tag)lar bilan belgilanadi. Ular maxsus burchakli ishoralar bilan o'rlagan bo'ladi, (< va >). Teglar matnlarni formatlashda va matnga har xil nomatn elementlarni masalan, grafiklar, qo'shimcha ob'ektlar va shu kabilarni o'rnatishda ishlatiladi. HTML tilining asosiy qoidalari quyidagicha:

**1 - qoida**. HTMLdagi istalgan harakat teglar bilan aniqlanadi. Bitta teg (chap) harakatning bosh qismida, ikkinchisi esa, (o'ng) oxirida turadi. Bunda teglar « < » yoki « > » ishoralar bilan yonma-yon turadi. Yolg'iz o'zi ishlatiladigan teglar ham mavjud.

**2 - qoida**. Brauzer darchasidagi burchakli qavs ichiga joylashtirilgan istagan teg yoki boshqa instruktsiya tashqariga chiqarilmaydi va HTML–fayl uchun ichki buyruq hisoblanadi.

Demak, WWW sistemasidan qandaydir hujjat yoki xabar olsangiz, ekranda yaxshi formatlangan, oʻqish uchun qulay matn paydo boʻlgani koʻrasiz. Bu shuni anglatadiki,WWW hujjatlarida qandaydir ma'lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud. Hujjatlar tayyor, siz foydalanuvchining qaysi kompyuterda ishlashini bilmaysiz, hujjatlar aniq bir kompyuter platformalariga moʻljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olmaysiz. Kompyuterda ishlayotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat'iy nazar, yaxshi formatlangan hujjatni olish kerak. Bu muammoni HTML andoza tili hal

qiladi. HTML (Hyper Text Markup Language - gipermatn belgilash tili). WWW sistemasi uchun hujjat tayyorlashda ishlatiladi. HTML hujjatning tuzilishini ifodalovchi uncha murakkab boʻlmagan buyruqlar majmuidan iborat. HTML buyruqlari orqali matnlarni istagancha shaklini oʻzgartirish, yaʼni matnning maʼlum bir qismini ajratib olib boshqa faylga yozish, shuningdek boshqa joydan turli xil rangli tasvirlarni qoʻyish mumkin. U boshqa hujjatlar bilan bogʻlaydigan gipermatnli aloqalarga ega.

**HTML – hujjat tuzilishi.** HTML – belgili til bo’lib, yaʼni bu tilde yozilgan kod o’z ichiga mahsus ramzlarni mujassamlashtiradi. Bunday ramzlar hujjat ko’rinishini faqatgina boshqarib, o’zi esa ko’rinmaydi. HTMLda bu ramzlarni teg (teg – yorliq, belgi) deb ataladi. HTMLda hamma teglar ramz-chegaralovchilar (<, >) bilan belgilanadi. Ular orasiga teg identifikatori (nomi, masalan B) yoki uning atributlari yoziladi. Yagona istisno bu murakkab chegaralovchilar (<!-- va -->) yordamida belgilanuvchi sharxlovchi teglardir. Aksariyat teglar jufti bilan ishlatiladi. Ochuvchi tegning jufti yopuvchi teg. Ikkala juft teg faqatgina yopuvchi teg oldidan «slesh» (“/”) belgisi qo’yilishini hisobga olmaganda, deyarli bir xil yoziladi. Juft teglarning asosiy farqi shundaki, yopuvchi teg parametrlardan foydalanmaydi. Juft teg yana konteyner deb ham ataladi. Juft teglar orasiga kiruvchi barcha elementlar teg konteyneri tarkibi deyiladi. Yopuvchi tegda zarur bulmagan bir qator teglar mavjud. Baʼzida yopuvchi teglar tushirib qoldirilsa ham zamonaviy brauzerlar aksariyat hollarda hujjatni to’g’ri formatlaydi, biroq buni amalda qo’llash tavsiya etilmaydi. Masalan, rasm qo’yish tegi <IMG>, keyingi qatorga o’tish <BR>, baza shriftini ko’rsatish <BASEFONT> va boshqalar o’zining </IMG>, </BR> va hokazo yopuvchi juftlarisiz yozilishi mumkin. Noto’g’ri yozilgan tegni yoki uning parametri brauzer tomonidan rad kilinadi. (bu brauzer tanimaydigan teglarga ham taalluqli). Masalan, <NOFRAME> teg-konteyneri faqatgina freymlarni taniydigan brauzer tomonidan hisobga olinadi. Uni tanimaydigan brauzer <NOFRAME> tegini tushunmaydi. Teglar parameter va atributlarga (inglizcha. attribute) ega bo’lishi mumkin. Ruxsat etilgan parametrlar yig’indisi har-bir teg uchun individualdir.

**CSS 3 haqida ma'lumot.** CSS - bu stillar bilan ishlash uchun mo'ljallangan kodlar majmuasidir. Hozirgi kunga kelib yangi CSS3 versiyasi ishlab chiqilmoqda, lekin hali ko'p brauzerlar bu stillarni aks ettira olmayapti. Shuning uchun CSS3 yaratuvchilari brauzer o'rtasida kelishmovchiliklarni oldini olish maqsadida brauzer turiga qarab har xil prefikslar ishlab chiqishdi va bu prefikslardan CSS3 to'liq yaratilmaguncha ishlatish tavsiya etilgan, CSS3 to'liq yaratilgandan so'ng bu prefikslar olib tashlanadi. Bu prefikslar quydagilar:

**Safari va Chrome brouzerlari uchun** -webkit-

**Opera brouzeri uchun** -o-

**Firefox brouzeri uchun** -moz-

**Internet Explorer(IE) brouzeri uchun esa** -ms-

Css3 da eng asosiy qo'shilgan stillardan biri bu animastiyalardir, ya'ni stillar almashinish jarayoni birdaniga emas, balki sekin astalik bilan sodir bo'lishidir. Quyida Css3 versiyasiga yangi qo'shilgan ba'zi stillarni misol tariqasida ko'rsatib o'taman.

background-color: rgba(10,0,255,0.7);

Bu erda sahifa foniga rang berib, shu rangni 0.7 darajali och tusga keltirilmoqda, tanishing CSS3 ning yangi elementi rgba.

```
#forma {
border-bottom-right-radius: 2em;
border-bottom-left-radius: 1em;
order-top-left-radius: 5em;
border-top-right-radius: 3em;
}
```

http://www.tami.uz/matnga_qarang.php?id=13 ma'lumot manbai.

**JavaScript** – Netscape firmasi tomonidan ishlab chiqilgan skriptlardan tuzilgan yangi tildir. JavaScript yordamida biz ajoyib Web saxifalar yaratishimiz mumkin. JavaScript yordamida nimalar qilish mumkinligini ko'ramiz va xattoki qanday qilinishini bilib olishimiz mumkin.

JavaScript – bu Java emas. Ko’pchilik odamlar JavaScript – bu xuddi Javaning uzi deb bilishadi, chunki ularning nomi bir xillikka ega. Xaqiqatda esa bunday emas. Xozircha bu tillar orasidagi farqlarning barchasini ko’rsatib o’tish ortiqcha deb o’ylayman, shunday ekan JavaScript bu Java emasligini esda tutsak bas.

JavaScriptni ishlatish. JavaScriptda yozilgan skriptlarni chiqarish uchun nima qilish zarur? Sizga JavaScript bilan ishlash qobiliyatiga ega bo’lgan brouzer talab qilinadi. Masalan, Netscape Navigator (2.0 versiyasidan boshlab) yoki Microsoft Internet Exploler (MSIE – 3.0 versiyasidan boshlab). Bu brouzerlar keng qo’llanilib boshlangandan boshlab, ko’pchilik odamlar JavaScript tilida skriptlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo’ldi.

Albatta bu berilgan dasturni o’qishdan oldin siz HTML tilining asoslari bilan tanishgan bo’lishingiz shart. HTML tili xaqida yuqorida gapirib o’tildi.

HTML – Saxifada JavaScriptni joylashtirish. JavaScript ning script kodlari HTML saxifada to’g’ridan to’g’ri joylashtiriladi. Buning qanday qilinishini ko’rish uchun quyidagi oddiy misol orqali qo’rib chiqamiz:

```
<HTML>
<BODY>
<BR>
  Bu oddiy HTML xujjat.
</BR>
<script language=”JavaScript”>
document.write (“Bu esa  JavaScript”)
</script>
<BR>
  Yana HTML. Xujjat.
</BR>
</BODY>
</HTML>
```

Bir qarashda bu misol oddiy HTML dokumentni eslatadi. Birgina bu yerda yangi konstruktsiya:

```
<script language=”JavaScript”>
document write (“Bu esa JavaScript”)
</script>
```

Bu xaqiqatdan xam JavaScript kodi. Bu scriptning qanday ishlashini ko’rish uchun joriy misolni HTML fayli sifatida yozib olamiz va brouzerga yuklaymiz.

Bu esa o’sha fayl bajarilishining natijasi (Agar JavaScriptni kullab-kuvvatlovchi brouzerdan foydalansangiz sizda 3 satr bo’ladi):

*Bu oddiy HTML xujjat.*

*Bu esa JavaScript*

*Yana HTML. Xujjat.*

Shuni aytish kerakki, berilgan script unchalik foydali emas, buni HTMLning «xaqiqiy» tilida yozganda xam bo’lar edi.

Biz shunchaki <script> tegining belgisini ko’rib chiqdik. <script> va </script> teglari orasidagi barcha narsalar JavaScript asosiy buyruqlardan tashkil topadi bulardan biri document.write buyrug’ini ishlatilishini ko’rishimiz mumkin. document.write buyrug’i qachonki joriy dokumentga(xujjatga) biror narsa yozish kerak bo’lsa ishlatiladi. Demak, bizning kichkina dasturimiz HTML dokumentda “ Bu esa JavaScript ” frazasini yozadi.

JavaScriptni kullab-kuvvatlamaydigan brouzerlar. Agar brouzer JavaScriptni qabul qilmasa, buday saxifa qanday ko’rinishda bo’ladi. JavaScriptni qullab-quvvatlamaydigan brouzerlar <script> tegini “tanimaydi”. Ular buni oddiy matn sifatida chop kiladi. Boshqacha kilib aytganda bizning dasturimizda keltirilgan JavaScript kodi HTML dokumentdan tugri markazida paydo bo’ladi. Albatta bu bizning maqsadlarimizga to’g’ri kelmaydi. Bu xol uchun maxsus usul mavjud va bunda kirish script kodi brouzerning eski versiyalaridan berkitiladi. Buning uchun HTML ning <!-- > komentariya tegi ishlatiladi. Natijada bizning kirish kodimizning yangi ko’rinishi quyidagicha bo’ladi:

```
<HTML>
<BODY>
<BR>
Bu oddiy HTML dokument.
</BR>
<script language=”JavaScript”>
<!-- from old browsers>
document.write (“ Bu esa JavaScript”)
//…
</script>
<BR>
Yana HTML dokument.
</BR>
</BODY>
</HTML>
```

Brouzer JavaScriptni qo’llab-quvvatlamagan xolda quyidagicha chop qilar edi:

*Bu oddiy HTML dokument.*

*Yana HTML dokument.*

Brouzer JavaScriptni qo’llab-quvvatlamagan xolda va HTML ning kommentoriya tegi yo’q bo’lganda quyidagicha chop qilar edi:

*Bu oddiy HTML dokument.*

*docuemnt. write (“Bu esa JavaScript!”)*

*Yana HTML dokument.*

Iltimos, shunga e’tiboringizni qaratingki, siz JavaScript ning dastlabki kodini to’la ravishda berkita olmaysiz.

## 2.2 PHP web dasturlash tili, uning ma’lumotlar bazasi va web serverlar bilan bog’liqligi

**PHP dasturlash tilining qisqacha tarixi.** 1994 yili php tilining yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o’zinig saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilida maxsus qobiq yozib amalda qo’llagan. Ko’p o’tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sekinligi aniqlanganidan so’ng, dasturlarni yangidan “C” tilida yozib chiqishga to’g’ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko’rish uchun serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo’lgan. Ko’p o’tmay, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyul oyida dasturiy mahsulot PHP (Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi. Imkoniyatlari oddiy va sodda bo’lib: bir necha buyruqlarni tushunadigan kod analizatori(tekshiruvchisi), mehmonlar hisoblagichini, kitobini, chatini yaratish uchun foydali dasturlar to’plamidan iborat bo’lgan.

1996 yil aprel oyida dasturlar jiddiy qayta ishlanganidan so’ng, PHP/FI (Personal Home Page / Forms Interpreter) nomi bilan mahsulotning ikkinchi nashri paydo bo’ldi. Bu mahsulot html-kod ichiga yozilib, html-formalarni qayta ishlab, hozirgi PHP dasturlash tilining tayanch imkoniyatlarini ichiga olgan. PHP/FI kod yozilishi Perl tiliga juda o’xshagan, lekin soddaroq bo’lgan.

1997 yili PHP/FI 2.0 nashri chiqdi. O’sha paytda bu mahsulot bilan dunyo bo’yicha bir necha ming odam foydalanib, taxminan 50 ming domen bo’lib, Internetning 1% ini tashkil qildi.

1997 yilda Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP/FI kodini boshqatdan yozib chiqishdi, chunki eski kod ular ishlatayotgan elektron tijorat tizimlari uchun yaroqsiz edi. Eski kodning mualliflaridan yordam olish uchun ular birlashishni taklif etib, PHP3 nomli loyihani PHP/FI -ni rasmiy vorisi deb e’lon qilishdi. Yangi loyiha uyushgandan keyin PHP/FI loyihasi ishlab chiqarilishi to’xtatilgan.

PHP 3.0 ning eng kuchli taraflaridan biri uning kengaytirala olinadigan yadrosi(tizimning boshqaruv qismi) bo’lib, bundan tashqari, ma’lumot

jamg’armalar bilan, turli protokollar va interfeyslar bilan birgalikda ishlash keng imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob’ektlarga mo’ljallangan dasturlashni qo’llay olishi. Yangi loyiha bilan birga nafaqat tilni tashqi, ichki tuzulishi o’zgardi, balki o’zini nomi ham. Endi PHP qisqartmasi “PHP: Hypertext Preprocessor” ma’nosini anglatishi bildirildi.

1998 yilning oxirida PHP foydalanuvchilarning soni o’n minglardan oshdi. Yuz mingdan oshiq veb-saytlar bu tilni qo’llashini e’lon qilishdi. Taxminan Internetning 10% serverlarida PHP 3.0 o’rnatilgan edi.

1996 yilning iyun oyda PHP3 to’qqiz oy ommaviy tekshiruvidan keyin rasman e’lon qilindi. Shu yilning qishida Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP yadrosini qaytadan ishlab chiqarishni boshlashgan. Ularning asosiy vazifasi PHP tiziminig unumdorligini ko’tarish va kodning modullarini yaxshilash edi.

1997 yilning o’rtalarida birinchi marta taqdim qilingan yangi yadro “Zend Engine” deb nomlangan (“Zend”: mualliflar “Zeev” va “Andi” ismlardan tashkil topgan). Uni asosida tuzilgan yangi til PHP4 2000 yilning may oyida rasman chiqarilgan. Unumdorlik yaxshilangandan tashqari, PHP 4.0 muhim yangiliklarga ega bo’lib, sessiyalarni qo’llash, buferli chiqarish, kiritilgan ma’lumotlarni havfsiz qayta ishlash va yana bir necha yangi til tuzuvchilarini paydo bo’lishidan iborat.

Hozirgi kunlarda “Zend Engine” qayta yaxshilanib PHP5 tili ishlab chiqarildi. Asosiy o’zgarishlar ob’ektlarga mo’ljallangan dasturlash modelida bo’lib, tilning imkoniyatlari yanada kengaytirdi.

Hozirda PHP tilini yuz minglab dasturchilar ishatib, bir necha million saytlar yaratilib, Internetning 20% domenlarini tashkil etmoqda.

1.PHP tarixining jadvali

| Nashr | Sana | Izoh |
|---|---|---|
| PHP 1.0 | 1995 yil, 8 iyun | Rasmiy nomi “Personal Home Page Tools (PHP Tools)”. Bu “PHP” qisqartmani birinchi marta ishlatilinishi. |

| | | |
|---|---|---|
| PHP 2.0 | 1996 yil, 16 aprel | Veb sahifalarni “Tez va oson ishaydigan qurol” deb e’lon qilingan mahsulot. |
| PHP 3.0 | 1998 yil, 6 iyun | Bir kishi ishlab chiqaruvchi loyihadan ko’p ishlab chiqaruvchilar loyihasiga aylandi. Endi Gutmans va Ziv Suraski kodni boshqatdan yozib chiqishdi. |
| PHP 4.0.0 | 2000 yil, 22 may | Yangi yadro “Zend Engine” asosida tuzilgan |
| PHP 4.1.0 | 2001 yil, 10 dekabr | Til konstruktsiyasiga superglobal imkoniyatlar qoshilgan ($_GET, $_POST, $_SESSION, etc.) |
| PHP 4.2.0 | 2002 yil, 22 aprel | Xavfsizlikni oshirish maqsadida tizimning sozlash “register_globals” parametri o’chirilgan. |
| PHP 4.3.0 | 2002 yil, 27 dekabr | “CGI” (Common Gateway Interface)ga qo’shimcha “CLI” (command line interpreter) texnologiyasi kiritilgan. |
| PHP 4.4.0 | 2005 yil, 11 iyul | phpize va php-config skriptlari uchun qo’llanma varaqlari qo’shilgan. |
| PHP 5.0.0 | 2004 yil, 13 iyul | Zend Engine II - yangi ob’ekt modeli kiritilgan. |
| PHP 5.1.0 | 2005 yil, 24 noyabr | PHP Engine ishlash unumdorligi yaxshilangan. |
| PHP 5.2.0 | 2006 yil, 2 noyabr | Kengaytiradigan filtr modullarining php tizimida ishlatish imkoniyatlari ochiq holati o’rnatilgan (default) |

PHP tili asosan quyidagi afzalliklarga ega:

1. an’anaviylik
2. oddiylik
3. samaradorlik
4. xavfsizlik
5. moslashuvchanlik

**An’anaviylik.** PHP tarkibidagi til strukturasi C va Perl ga o□ fxshashlik xususiyati uning barcha versiyalarida saqlanib qolgan.

**Oddiylik.** PHP ning kodlarini boshqa belgilash tillariga oson joylashtirish imkoniyati mavjud.

```
<html>
<head>
<title><? print □\hello. ?></title>
<head>
<body>.....</body>
</html>
```

**Samaradorlik**. PHPda server ish jarayonini klientlarga taqsimlash yuqori darajada qo’yilgan, bunda klient so’rovlari imkon boricha qondirilishi yo’lga qo’yilgan.

**Xavfsizlik**. PHP da xavfsizlik 2 ta sathga bo’lingan :

a) Tizimli xavfsizlik

b) Taqdimot xavfsizligi

**Moslashuvchanlik**. PHP da hosil qilingan stenariylar platformaga moslashuvchan bo’ladi. PHP ga tegishli bo’lgan barcha vositalar internetda to’g’ridan to’g’ri tarqatiladi.

PHP ning vazifasi serverni ma’lumotlar ombori bilan bog’lash (Apache+PHP+MySQL). PHPni o’rganishdan avval HTMLni bilishingiz kerak. PHP ishlashi uchun birinchi navbatda server dasturi o’rnatilgan bo’lishi kerak. Usiz PHP operatsiyalarini bajarib bo’lmaydi. Ular Apache, Denver, Apache’ni kompyuterga o’rnatiladi.

PHP operatsiyalari brauzerda ko’rinmaydi. Faqat uning natijasini HTML-kod ko’rinishida olinadi. Dasturda xatolik yuz beradigan bo’lsa, qaysi qatordagiligini ham server ko’rsatadi. PHP kodlarini oddiy bloknotga ham yozsa bo’ladi. Ammo PHP tahrirlovchilarini ishlatgan ma’qulroq. Masalan,  Zend dasturi. U PHP koddagi xatoliklarni ko’rsatib turadi.

**Ma’lumotlar bazasi** va uning asosiy tushunchalari. Lokal ma’lumotlar bazasi undan foydalanayotgan dastur bilan bitta kompyuterda joylashgan bo’ladi. Bunday hollarda axborot tizimlari lokal axborot tizimlarida qurilgan deb hisoblanadi . Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash bir foydalanuvchi rejimida amalga oshiriladi.

Fayl server arxitekturasi ko’pincha foydalanuvchilari kam bo’lgan tarmoqlarda foydalaniladi. Ko’pincha bunday tizimlar Paradox yoki Dbase bazalari asosida quriladi.

Fayl server arxitekturasi quyidagi kamchiliklarga ega:

Foydalanuvchi doimo lokal ko’chirish bilan ishlaidi. Agar jadvallarda o’zgarish bo’lsa lokal nusxani ma’lumotlar bazasini uzatadi va qayta qabul qiladi. Buning hisobiga tarmoqda aylanma ma’lumotlar oshib ketadi va yuklanish yuzaga kelib qoladi.

Ikkinchi kamchiligi shundaki har bir kompyuterda o’zini Ma’lumotlar bazasini lokal nusxasi bo’lgani uchun unda amalga oshirilayotgan o’zgarishlar qolgan foydalanuvchilarga bir o’z vaqt noma’lum bo’lib turadi.

**Ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlarni qayta ishlash operatsiyalari.** Ma’lumotlar bazasi ma’lumotlarini qayta ishlashga quyidagi operatsiyalar kiradi: Ma’lumotlar bazasini yaratish.

Ma’lumotlar bazasini o’zgartirish.

Ma’lumotlar bazasini yangilash.

Ma’lumotlar bazasini tartiblash.

Ma’lumotlar bazasidan ma’lumotlarni qidirish.

Ma’lumotlar bazasini fayl ko’rinishida qayta ishlash.

Ma’lumotlar bazasini diskdan yuklash.

Ma’lumotlar bazasidan foydalanib hisobotlar yaratish va bosmaga chiqarish.

**MySQL ma’lumotlar bazasi.** MySQL (o’qilishi "May es kyu el"). Relyatzional ma’lumotlar bazasini boshqarish sistemasi. Turli operatsion sistemalarda qo’llanishga moslashtirilgan Open-Source-mahsulot bo’lib, ko’pchilik dinamik web-sahifalar uchun asos hisoblanadi. MySQL Shvetsiyadagi MySQL AB

firmasi tomonida yaratilgan bo’lib, 2008 yilning fevralida Sun Microsystems tomonida sotib olingan. Endlikda dastur kodini yaratishgda ushbu firma javobgar. MySQL Server ochiq, ya’ni tekin dasturiy ta’minot bo’lib, General Public License himoyasidadir. MySQL AB/Sun firmasi dastur kodiga mualliflik huquqiga egaligi sababli, ushbu dasturiy ta’minotning kommerzial turi ham bor. MySQL nomining kelib chiqishi aniq emas. Unix, MacOS X va Linixdan tashqari, MySQL Windows, OS/2 va i5/OS (avvalgi OS/400) uchun ham moslashtirilgan.Windows uchun esa ba’zida ayrim cheklanishlar uchraydi. MySQL ko’pincha web-servis uchun ma’lumotlarni saqlashda qo’llaniladi, webserver Apache va PHP bilan birgalikda ishlatiladi. MySQL hozirda 6.000.000 dan ortiq foydalanuvchilar va kuniga 35.000 dan ortiq download qilinadigan dunyoning eng mashhur ma’lumotlarni boshqarish sistemasidir.

**Serverlar haqida tushuncha. Apache server.** Tarmoqqa ulangan, doimiy ishlaydigan va tarmoqning turli xizmatlarini bajaradigan kompyuterga SERVER deyiladi. Server tarmoqdagi ma‘lumotlarni saqlaydi, tarmoqning boshqa nuqtalariga uzatadi va asosiy xizmati – foydalanuvchilarni internetga ulaydi. Ayni mana shu xizmatlarni bajaradigan tashkilotni – provayder deb atashadi. Ularning serverlari internetga kirish darvozalari hisoblanadi.

Bundan tashqari server so‘zi quyidagicha shakllarda ham ishlatiladi.

***Ajratilgan server.*** Yirik kompaniyalar ko’pgina kompyuterlarga ega bo’lishadi. Tashkilotning barcha tarmoq xizmatlarini boshqarish uchun alohida kompyuter ajratilib, unga maxsus dasturlar o’rnatiladi, internetga doimiy holda ulanadi va uni ajratilgan server deb atashadi. Bu server orqali barcha kompyuterlar internetga chiqa olishadi.

***Virtual server.*** Kecha-yu kunduz internetga ulangan kompyuterni ishlatish oddiy foydalanuvchiga qimmatga tushadi. Shuning uchun ular boshqa serverning xotirasidan bo’sh joyni ijaraga olishadi va virtual serverga ega bo’lishadi. Bu xuddi o’zingizning internetda vakolat xonangizga o’xshaganday. Albatta, foydalanuvchi jismoniy server bilan foydalanish huquqiga ega bo’lmaydi, lekin tarmoq orqali virtual serverga kirib, kerakli ma’lumotlarni yozib qo’yishi mumkin. Keyin

tarmoqqa kiritilgan ma’lumotlarni boshqa foydalanuvchilar kecha-yu kunduz o’qishi mumkin. Odatda, bunday xizmatni provayderlar ko’rsatadi va uni - xosting (inglizcha - hosting) deb atashadi. Serverdagi xosting xizmatlari ikki xil bo’ladi: pulli va bepul. Pulli xosting xizmatlarga boy va tez ishlaydi, bepulida esa xizmat turlari kam, ishlash tezligi past va saytingizda o’zgalarning reklamalari paydo bo’lib turadi.

***Proksi-server.*** Proksi-server – foydalnuvchi va internet orasidagi maxsus vositachi dastur. Uni ishlatish shart emas, lekin bu dastur yordamida web sahifalarining yuklash jarayonini tezlashtirish mumkin. Proksi-server Internetdan ko’p ko‘radigan sahifalarni qattiq diskdagi omborga saqlaydi va yana shu sahifalar so’ralganda Internetdan emas, balki xotirasidan ko’rsatadi. Odatda, proksi-server ajratilgan serverga o’rnatiladi va tarmoq xizmatlarini ham bajaradi: mahalliy tarmoq kompyuterlarini Internetga ulaydi. Tarmoqdagi kompyuterlar internet so’rovlarini ajratilgan serverga uzatishadi, serverda esa proksi dasturi so’rovlarni internetga chiqaradi va tashqaridan kelgan ma’lumotlarni tarmoq kompyuterlariga yetkazib beradi. Apache server ham yuqoridagi serverlar bajargan vazifalarni bajaradi, lekin farq shundaki, bu ichki ya’ni lokal server hisoblanadi. Bunda foydalanuvchi kompyuteri o’zining serveri ham hisoblanadi. Siz apache serverni o’rnatganingizda kompyuteringizda vertual disk hosil bo’ladi. Sizning tuzgan web sahifalaringiz ma‘lumotlari o’sha diskda saqlanadi. Yoki huddi shu disk ichidagi ma‘lumotlar operatsion tizim o’rnatilgan diskda (odatda C diskda) WebServers papkasi ichida joylashgan bo’ladi.

## 2 - bo’limga xulosa

Ushbu bobda HTML asosiy web dasturlash tili, CSS va JavaScript web dasturlash tillari haqina umumiy ma’lumotlar ko’rib chiqildi. PHP dasturlash tili afzalliklari va uning tarixiga qisqacha to’xtalib o’tildi. PHP dasturlash tili va MySQL ma’lumotlar bazasi haqida umumiy ma’lumotlar berildi va ularning o’zaro bog’liklari to’g’risida gapirib o’tildi. Dastur ishlashi uchun kerak bo’ladigan apache serverning PHP dasturlash tili bilan bog’liqligi to’g’risida ham to’xtalib o’tildi.

# 3. ONLAYN WEB MAKTAB TIZIMI VA O'QUV DARSLIK MA'LUMOTLAR BAZASINI ISHLAB CHIQISH

## 3.1 Onlayn web maktab tizimining texnik ta'minoti

Onlayn web maktab tizimi PHP web dasturlash tilida tuzilgan bo'lib, uning natijasini faqat internet brauzerlarida ko'rish mumkin. Masalan, Opera, Internet Explorer, Firefox Mozella va shu kabilar. PHP ishlashi uchun birinchi navbatda server dasturi o'rnatilgan bo'lishi kerak. U siz PHP operatsiyalarini bajarib bo'lmaydi. Ular Apache, Denver, Apache ni o'z kompyuteringizga o'rnatishingiz kerak.

| | |
|---|---|
| **Protsessor** | Minimum:<br>1.5 gigahertz (GHz)li Pentyum protsessori tavsiya etiladi |
| **Operatsion sistemalar** | Apache Linux yoki Unix sistemalariga qo'yilgan, lekin siz Windows ga ham o'rnatishingiz mumkin.<br>Microsoft® Windows® 2000 Server SP4<br>Microsoft® Windows® XP Professional SP2<br>Microsoft® Windows® XP Home Edition SP2<br>Microsoft® Windows Server™ 2003<br>va boshqalar. |
| **RAM-Tezkor xotira** | Minimum:<br>256 MB |
| **Hard Disk-Qattiq disk** | Minimum:<br>600 Mb li bo'sh joy bo'lishi talab etiladi. |
| **CD yoki DVD Drive** | Talab qilinmaydi |
| **Display-Monitor** | Minimum:<br>800 x 600 256 rangli monitor tavsiya etiladi:<br>1024 x 768 High Color - 16-bit |
| **Sichqoncha** | Microsoft sichqonchasi |

## 3.2 Onlayn web maktab tizimini ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish

Onlayn web maktab tizimi ma’lumotlar bazasi ishlab chiqish tizimni yaratishning asosiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun xam barcha dasturchilar dastur tuzishdan oldin uning ma’lumotlar bazasini shakillantirish haqida o’ylaydi. Onlayn web maktab tizimini yaratishda kerak bo’ladigan ma’lumotlar bazasini shakillantiriladi. Bu onlayn web maktab tizimi web dasturlashni o’rgatuvchi web sayt bo’lganligi uchun asosan, darslar jadvali va masala misollar jadvali kerek bo’ladi. Buning uchun Apache serverning phpMyAdmin bo’limiga kirib yangi ma’lumotlar bazasi yaratiladi. Ma’lumotlar baza nomini onlayn web maktab tizimini nomiga moslab webmaktab deb nomlandi va kerakli jadvallar xosil qilindi. Onlayn web maktab tizimi uchun darslar jadvali, misollar jadvali, topshiriqlar jadvali va user(foydalanuvchilar) jadvali kerak bo’ladi.




3.1 – rasm. users jadvali.




3.2 – rasm. Darslar jadvali.




3.3 – rasm. Misollar jadvali.




3.4 – rasm. Topshiriqlar jadvali.

Ma’lumotlar bazasi shakillantirildi. Bu to’rt jadval bilan onlayn web maktab tizimi ma’lumotlat bilan to’ldiriladi. Jadvallar bir-birlari bilan bog’langan.




3.5 – rasm. MB Relyatsion modeli

### 3.3 Onlayn web maktab tizimini yaratish va undan foydalanish

Onlayn web maktab tizimini yaratishda HTML, CSS, JavaScript va PHP, MySQL web dasturlash tillaridan keng foydalanildi. Onlayn web maktab tizimida bo’lishi kerak bo’lgan ma’lumotlar yaratilgan ma’lumotlar bazasidan olinadi. Bu PHP web dasturlash tili va MySQL so’rovlar orqali amalga oshiriladi. Onlayn web maktab tizimida bo’ladigan asosi menyular HTML, CSS va web dasturlash tillari darslari bo’ladi. Yuqorida tahlil qilib o’tgan web dasturlashni o’rgatuvchi web saytlar asosida bitiruv ish onlayn web maktab tizimini shakillantirildi. Onlayn web maktab tizimi bosh oynasining ko’rinishi 3.6 – rasmda berilganidek bo’ldi.

Bosh menyuda: bosh sahifa, HTML, CSS, JAVASCRIPT, SQL, PHP menyulari keltirilgan. Bu menyular xammasi o’z vazifasiga ko’ra darslarni ochib beradi. Onlayn web maktab tizimi bir sahifalik dastur hisoblanadi, asosiy index.php faylga barcha fayllar chaqiriladi. Bosh sahixa alohida bir saxifa bo’ladi.

Qolgan menyular uchun alohida papka yaratiladi va u yerda darslar bo’yicha PHP web dasturlash tili kodlari va MySQL so’rovlar yodamida ma’lumotlar sahifaga chaqiriladi. Shu bilan xar bir bo’lim to’ldirilgach PHP super globali $_GET[] yordamida bosh index.php ga chaqiriladi. Har bir menyu uchun unikal nom beriladi va o’sha nom asosida qaysi menyu chaqirilayotganligi aniqlanadi. Shu asosida tanlangan menyu aktiv holaga o’tadi. Foydalanuvchi qaysi menyuda va qaysi darsni o’qiyotganini aniq bilib turadi. Darslarga kirganda dasturning chap qismida darslar ro’yxati bo’ladi va qaysi dars tanlangan bo’lsa osh dars aktiv holatda bo’ladi. Darslarda oldin ma’lumot keyin misol ketiriladi, bitta darsda kamida ikkita uchta misol bo’ladi. Darslar tugaganidan keyin o’sha dars bo’yicha topshiqirlar beriladi. Onlayn web maktab tizimidan foydalanishi uchun foydalanuvchi kompyuter tarmoqqa ulangan bolishi lozim.

## 3.4 Foydalanuvchi uchun qo’llanma

Onlayn web maktab tizimidan foydalanish uchun [www.webmaktab.com](http://www.webmaktab.com) manzil bo’yicha tizimga kirib, saytdan foydalanish mumkin.




3.6 – rasm. Onlayn web maktab tizimi bosh oynasi

Onlayn web maktab tizimidan foydalanish uchun tizimdan ro’yxatdan o’tish talab etilmaydi. Istagan foydalanuvchi kirib o’zini qiziqtirgan ma’lumotni olib, o’rganishi mumkin.  Bu web dasturlashni o’rgatuvchi interaktiv webmaktab.com onlayn web maktab tizimining bosh sahifasi. Bu yerda ko’rib turganingizdek bosh qismida tizim logotipi joylashgan, menyu qismida hozircha mavjud dasrlar ro’yhati keltirilgan, web saytning chap qisimda esa mavjud darslarning qisqacha menyusi keltirilgan. Asosiy kontakt qismida HTML, CSS va bosh darslar bo’yicha linklar va o’rganiladigan misollar keltirilgan. Web saytning pastki qismida foydalanuvchilar uchun web sayt haqida, biz bilan bog’lanish, HTML rang kodlari, web sayt foydalanuvchilarinini hisobagich va boshqa bo’limlar o’rin olgan.




3.3 – rasm. HTML darslar oynasi

Onlayn web maktab tizimining web dasturlash bo’yicha birinchi darsi. Onlayn web maktab tizimining bosh qismi o’zgarmaydi, chunki, yuqorida aytilganidek bu tizim bir sahifalik tizim hisoblanadi. Onlayn web maktab tizimining chap qismida HTML bo’yicha barcha darslar ro’yxati keltirilgan. Tanlangan dars va mavzu aktiv xolatda, ya’ni boshqa orqa fon bilan ajralib turadi. Asosiy content qismida esa darsning maruza matni joylashgan. Xar bir web saytda

bolgani kabi bu onlayn web maktab tizimida xam reklamalar uchun tizimning o’ng tomonidan joy qoldirigan lekin, bu tizim hozircha reklama oladigan holatda bo’lmaganligi uchun bu joy bo’sh. Kontent qismida mavzu nomi keltirilgan, keyin ikkita gipersilka, ya’ni onlayn web maktab tizimining bosh qismiga qaytish va keyingi mavzuga o’tish gipersilkalari mavjud. Undan so’ng mavu yuzasidan ma’lumotlar beriladi, shu ma’lumot uchun misol keltiriladi buni quyida ko’rishingiz mumkin:




3.4 – rasm. HTML darslar oynasi

Misol: sarlavhasi bilan boshlangan bu qismda mavzu bo’yicha misol ketiriladi. HTML teglar va belgilar alohida holatda ajralib turadi. Bu qismning pastida Mashq qilib ko’ring tugmasi mavjud bo’lib foydalanuvchi misolni o’zi ko’rib, uni o’zgartirib bilimini mustahkamlab mashq qilishi mumkin. Chiroq rasmi bilan boshlangan bu ogoxlantituvchi esa foydalanuvchiga to’g’ri foydalanishi uchun yordam beradi.




3.5 – rasm. Mashq qilib ko’rish oynasi

Bu sahifa alohida fayl xisoblanib barcha darslar uchun umumiy hisoblanadi. Qaysi darsning qaysi misolidan kelayotganligi anidlanadi va shunga mos misol foydalanuvchiga taqdim qilinadi. Ko’rinib turganidek bu sahifa ikkiga bo’libgan bo’lib, sahifaning chap qismida o’zagartirib mashq qilish mumkin bo’lgan oyna yaratilgan. Foydalanuvchi o’rganganlarini bu yerga tadbiq qilib o’zgartirib bilimini mustaxkamlaydi. Natijani ko’rish tugmasni bosganda ozining natijasini ko’rishi va bun zavqlanishi mumkin. Umumiy berilgan misol ma’lumotlar bazini examples jadvalidan tanlangan mavzu bo’yicha olinadi.

## 3 – bo’limga xulosa

Ushbu bobda dastur interfeysi yaratildi, ma’lumotlar bazasi ishlab chiqildi. Ma’lumotlar bazasi HTML, CSS va boshqa web dasturlash tillari bo’yicha ma’lumotlar va misollar bilan to’ldirildi. Web sayt interfeysi ishlab chiqildi, mashq qilib ko’ring oynasi hosil qilindi va ishlashi taminlandi. Dastur asosan PHP dasturlash tilida tuzildi. Dizayn qismi esa CSS3, JavaScript va jQuery web dasturlash tillari orqali shakillantirildi. Ma’lumotlar bazasi bilan MySQL so’rovlari orqali bog’lanildi. Web sayt texnik taminoti va foydalanuvchilar uchun qo’llanma ko’rsatib o’tildi.

# 4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIYA

## 4.1 Jahon ekologik muammolari

Global ekologik muammolar dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen va sof antropogen ta'sirlar natijasida yuzaga kelib umumbashariyatga tegishlidir. Ana shunday ekologik muammolarning ba'zilari bilan tanishamiz:

Atmosferaning dimiqish xodisasi. Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi $SO_2$ miqdori ortib borayotganligi ma'lum bo'lib qoldi.

Natijada Yer yuzasining harorati oxirgi 100 yil ichida 0,5-1,0 gradus ortdi. Iqlimning keng ko'lamda o'zgarishi atmosferaning sanoat chiqindilari va avtotrasnportlardan chiqayotgan gazlar bilan bog'liq. Yer yuzasining global isishi, ya'ni atmosferaning dimiqishi $SO_2$ ning havo tarkibida ortib ketishi, o'rmonlarning kesilishi, toshko'mir va benzin kabi yoqilg'ilarning yonishidan atmosferada to'planadigan $SO_2$ gazi tufaylidir. Ana shu zaylda ahvol o'zgarmasa XXI asrning o'rtalarida yer yuzasining harorati 1,5-4,5 gradusgacha ortishi mumkin. Natijada**:** Iqlimning o'zgarishi ayniqsa, cho'llanish jarayonining kuchayishi. Yogingarchilikning o'zgarishi. Dengiz va okeanlar satxining ortishi Muzliklarning Yerishi va kamayishi hamda boshqa hodisalar kuzatiladi.

**Ozon qatlamining siyraklanishi:** Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi azonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bo'lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiladi. Hozirgi davrda freonlardan keng foydalanish tufayli hamda aviatsiya gazlari,

atom bombalarini portlatishlar atmosferada etarli miqdorda ozon to’planishiga imkon bermayapti.

**Chuchuk suv muammosi:** Quruqlikda chuchuk suv va uning biosferadagi roli nihoyatda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz (2-2,5 %). Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo’lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3-3,5 ming $km^3$ suv sarflanadi. Qurg’oqchil zonalarda daryolar suvidan to’liq foydalanilgan xolda ularning suvi etmay qolmoqda.

1980 yil boshlarida bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika, Nil, Amudaryo, Sirdaryo va ba’zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaxarli moddalar bilan ifloslanishi o’sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 $km^3$ sanoat va oqova suvlarini daryolarga tashlaydi. Bu ko’rsatgich daryolarning umumiy suv miqdorining 10% ini tashkil etadi. Daryolardagi toza suvlarda yildan yilga har xil yerigan moddalar, zaxarli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda. Pestitsidlardan foydalanish muammosi. Ular tuproq va suvlardan o’simliklarga undan hayvonlar va odam organizmiga o’tadi. Pestitsidlar har bir bo’g’inda zararli va ziyon keltiradi. Pestitsidlarning zaharli ta’sirini oldini olish uchun quyidagi chora tadbirlarga amal qilish lozim.

1. Hayvon va odamlarga ta’sirini susaytirish.
2. Tuproq va suvlarda to’planishining oldini olish.
3. Tez parchalanuvchi va beqaror pestitsidlarni sintez qilish.
4. Pestitsidlardan foydalanishni iloji boricha cheklash.
5. O’simliklarni biologik himoya qilish.
6. Tirik tabiatdagi o’simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi.

O’simliklar dunyosi, ayniqsa yer yuzidagi hayotni ta’minlashda o’rmonlarning ahamiyati juda katta. Aholi sonining ortishi xo’jalik faoliyatining kengayishi tufayli tabiatning inson qo’li tegmagan joyi qolmayapti. O’simliklar

va hayvon turlarini davlat muhofazasiga olish qonunlar orqali ovchilikni to'g'ri yo'lga qo'yish, shuningdek qo'rikxonalar, zakazniklar, milliy bog'lar, botanika bog'lari va qizil kitoblar o'simliklar va hayvonlar turlarini saqlashda katta rol o'ynaydi.

Cho'llanish jarayoni: Yer kurrasi quruqligining 40 mln km.kv maydoni qurg'oqchilik mintaqasi bo'lib, dunyo aholisining 15% dan ortig'i ushbu hududga mujassamlashgan qishloq xo'jaligining tezkor rivojlanishi, sug'oriladigan yerlar va yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida, o'rmonlarning betartib kesilishi natijasida cho'llanish darajasi yil sayin ortmoqda. Inson ta'sirida vujudga kelgan cho'llar 9,1 mln. km. kv.ga etdi. Yer yuzasining ayrim mintaqalariga xos tabiiy-iqlim, ijtimoiy-ekologik, tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqalari natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar regional ekologik muammolar deb ataladi. Mintaqaviy ekologik muammolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi, o'rmonlarda daraxtlarning kesilishi. belgilangan miqdordan oshib ketishi va boshqalar hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolardan eng muhimi Orol va Orol bo'yi ekologik muammosidir. Orol dengizi yaqin vaqtlargacha eng yirik dengizlardan biri hisoblangan. U muhim baliqchilik, ovchilik, transport va rekreatsion ahamiatga ega edi. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida Amudaryo va Sirdaryoning suv quyishi 1970 yilga kelib 37,8 $km^3$, 1980 yilda esa 11,1 $km^3$ gacha kamayib ketdi. Suvning sho'rlanish darajasi litriga 9-10 g dan 34-37 g/litr gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz satxining yillik o'rtacha pasayishi 80-110 sm (oldin 53 sm bo'lgan 33 metr ga tushsa orol 2 ga bo'linib qoladi, hech bo'lmaganda 33,5 metr balandlikda saqlab qolish kerak). Orolning qurigan tubi yirik chang to'zon makoniga aylandi. Aholi ichadigan suv pestitsidlar bilan ifloslangan, keyingi 10 yil ichida o'lim 2 marta ortgan. Bolalar o'limi har tug'ilayotgan 1000ta chaqaloqdan 45-90 taga to'g'ri keladi. Ayollarning 80%ida kamqonlik xastaligi uchraydi. Bolalarning 90%ida siydigida tuzlar miqdori ortib ketgan. Orol muammosining hal qilinishining tub mohiyati suv resurslaridan oqilona

foydalanishni amalga oshirishga bog’liq. Orolni saqlab qolish uchun Markaziy Osiyo Respulikalari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yiliga 20-21 kub km suv Orolga quyiladigan miqdorda yagona suv xo’jalik siyosatini ishlab chiqish bunda Orol bo’yidagi barcha tabiiy ko’llarni saqlab qolish e’tiborga olinishi lozim. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi respublikada ijtimoiy ekologik holatiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko’rsatadi. Respublikamizda tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar. l.Yirik xududiy sanoat majmualari joylahgan rayonlarda tabiatni muhofaza qilish muammolari. (Angren, Olmaliq, Chirchiq, Farg’ona, Marg’ilon, Navoiy va hakozo.) 2.Orol va Orol bo’yi muammolari, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish. 3.Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestitsidlari va mineral ug’itlar bilan ifloslanishi. 4.O’simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, va milliy bog’lar tarmog’ini kengaytirish.

**Chiqindi turlari va ularni sinflarga bo‘linishi.** Kimyoviy ifloslanish turlari va darajalari. Tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi turli omillar ta’sirida paydo bo‘lib, yillar davomida tuproq qoplami zararlanishi kuzatiladi. Tuproqlar ifloslanishi turlicha bo‘lib, asosan sanoat korxonalari, maishiy va boshqa chiqindilar hamda turli jarayonlar mobaynida ifloslanadi. Har bir davlatda tabiiy resurslar hisoblanuvchi yer resurslarini muhofaza qiluvchi tashkilotlar bo‘lib, mazkur tashkilotlar tomonidan doimiy tarzda tuproqlarni kimyoviy ifloslanish holati nazorat kilinadi va shu asosda tegishli tadbirlar belgilanadi.

Uzbekiston Respublikasida yer resurslarining holati, ularni muhofazasi va tegishli masalalar bilan Tabiatni muhofaza kilish Qo‘mitasi, Gidrometrologiya xizmati va bir qator ilmiy - tadqiqot institutlari shug‘ullanadi. Bularda laboratoriya sharoitida ifloslovchi modda tarkibi, miqdori va boshqa xossalari o‘rganilib, ifloslanishga tavsif beriladi.

Kimyoviy ifloslangan tuproqlarning havfli - zaharli xususiyati, kimyoviy tarkibi va umumiy miqsori bo‘yicha turlarga ajratiladi.

Havfli-zaharli xususiyati bo‘yicha tuproqlar quyidagi kimyoviy ifloslanishlarga ajratiladi:

**1.Radioaktiv ifloslanish,**

**2. Og‘ir megallar va kimyoviy moddalar bilan ifloslanish,**

**3. Turli chiqindilar bilan ifloslanish.**

Tahlillarga ko‘ra radioaktiv ifloslanish eng havfli o‘rinda turadi, chunki radioaktiv ifloslanishda dastlab biologik dunyo jiddiy zarar ko‘radi va juda katta radiusda ham ta’sir etish xususiyatiga ega, eng achinarlisi inson sog‘ligiga juda havfli ta’sir etib, uning kelajak avlodlariga genlar orqali ta’sir etishi bilan boshqa ifloslanish turlaridan farq qiladi.

Og‘ir megallar bilan ifloslanishning havfli tomoni shundaki, birinchidan, og‘ir megallar bilan ifloslanishni vujudga keltiruvchi omillar va manbalar ko‘p (transportlar va sanoat - korxonalari) bo‘lib, ikkinchidan, tuproq qoplamida saqlanish (yemirilish) muddati bir necha ming yillarga teng.

Tuproqlarni turli chiqindilar bilan ifloslanishi yuqoridagi ifloslanishlar katori juda ko‘p hisoblanadi. Uning havfli tomoni shundaki, turli chiqindilar inson ta’siri va sanoat korxonalari tomonidan juda katta miqdorda tuproq qoplamiga to‘planadi. Maxsus chiqindilar ko‘miladigan "qabriston" lar yillar davomida atrof - muhit tuproq qoplamiga salbiy ta’sir qiladi. Chiqindilar zaharli xususiyati bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratiladi. Chiqindilar asosan kimyoviy tarkibiga va ta’sir etish xususiyatig ko‘ra bir - biridan farq qiladi. Tuproq qoplamiga ko‘proq to‘g‘ridan - to‘g‘ri ishlab chiqarish sanoati va maishiy chiqindilar tushadi. Qayta ishlash sanoati va boshqa turdagi chiqindilar nisbatan kamroq. Tuproq qoplamini kimyoviy ifloslanishida turli omillar yetakchi o‘rin egallaydi. Ifloslangan tuproqlar quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi.

Qishloq xo‘jalik sohasida foydalaniladigan tuproqlarning kimyoviy ifloslanish kategoriyalari

| **Tuproqparni ifloslanish kategoriyalari** | **Ifloslanish tavsifi** | **Foydalanish holati** | **Tavsiya etilgan tadbirlar** |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| I kategoriya ifloslanmagan | Tuproq tarkibida kimyoviy moddalar QQMko‘rsat-kichidan oshmaydi. | Barcha ekinlarni ekish mumkin | Tuproq ifloslanishiga bo‘lgan ta’sirini kamaytirish. |
| II kategoriya o‘rtacha havfli | Kimyoviy moddalar miqdori QQM ko‘rsatkichigacha, umumiy sanitar meyor holatida bo‘lib,tuproqqa yetib kelishi suv va havo orqali kechadi. | Sifat tarkibini nazorat kilgan holda ayrim o‘simliklarni ekish mumkin. | Suv va havo orqali tarqaluvchi yo‘llarni nazorat qilish va chegaralarshsh, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlardagi suv manbalarini nazoratga olish |
| III kategoriya yuqori havfli | Tuproq tarkibida kimyoviy moddalar miqdori KQM dan ortik va translakatsion ko‘rsatkichlarga zararli xisoblanadi. | Faqat texnika ekinlari ekishda foydalanish mumkin. Qishloq xo‘jalik ekinlari ekish taqiqlanadi. | 1. Qatiy ravishda I kategoriya tadbirlarini qo‘llash va zaxarli moddalar miqdorini o‘simliklar, mahsulotlar tarkibini nazorat qilish. 2. Hosil beruvchi o‘simliklarni toza tuproq sharoitiga ko‘chirish va nazorat qilish.Z. O‘simliklar yashil massalaridan foydalanishni cheklash. |
| IV kategoriya o‘ta havfli | Tuproq tarkibida kimyoviy moddalar KQMdanortadi va tuproqning barcha ko‘rsatkichlari uchun zararli hisoblanadi. | Barcha turdagi ekinlar ekish taqiqlanadi. | Ifloslangan tuproq qoplamini ifloslanish darajasini kamaytiruvchi tadbirlar qo‘llash. Qishloq xo‘jaligida foydalanuvchi suv tarkibini nazoratga olish va tabiiy himoya omillarini shakllantirish |

Tuproqni kimyoviy ifloslanish darajalarini tasniflashda barcha kimyoviy ifloslanish turlarida bir xil belgilanmaydi, balki muayyan ifloslovchi moddaning kimyoviy tarkibi, tuproqdagi miqdori, QQM, zaharli xususiyati va boshqa

xususiyatlariga ko‘ra aloxida-alohida tarzda belgilanadi. Biroq umumiy formula sifatida kimyoviy ifloslangan tuproqlar uchun quyidagi ifloslanish darajalari va koeffitsiyentlar qabul qilingan.

Kimyoviy ifloslangan tuproqlarning ifloslanish darajalari va koeffitsiyentlari

| **Ifloslanish darajasi** | **Yerning ifloslanganlik darajasi** | **Ifloslanish koeffitsiyenta** |
|---|---|---|
| 1 | Ifloslanmagan | 0 |
| 2 | Kuchsiz | 0,3 |
| 3 | O‘rta | 0,6 |
| 4 | Kuchli | 1,5 |
| 5 | Judakuchli | 2,0 |

Dunyo olimlari (SL.Davidova, V.I.Tagasov, 2002 y.) tomonidan turli kimyoviy modsalarning havflilik nuqtai nazaridan stress -indeks ko‘rsatkichlari belgilangan, bunga ko‘ra pestitsidlar - 140, og‘ir metallar - 135, AES chiqindilari - 120, qattiq shakldagi zaharli chiqindilar - 120, metallurgiya materiallari - 90, tozalanmagan oqava suvlar - 85, oltingugurt (II) - oksidi - 72, neft -72, kimyoviy o‘g‘itlar - 63, organik maishiy chiqindilar - 48, azot oksidlari - 42, saqlanayotgan radioaktiv chiqindilar - 40, shahar chiqindilari - 40, uchuvchan uglevodorodlar - 18, uglerod oksidi - 12 indeks ko‘rsatkichlari bilan belgilangan.

## 4.2 Favqulotda hodisalar va ulardan himoyalanish

**Favqulodda vaziyatlar, uning turlari va xususiyatlari.** Favqulodda vaziyat (FV)-ma’lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o‘limiga, salomatligiga, tevarak atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar havfining tarqalish tezligiga ko‘ra, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) tasodifiy FV - yer silkinishi. portlash, transport vositalardagi avariyalar va boshqalar:

